

6 MODUL MAVZU: O'ZBEK TILI DARSLARINI KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV, SMART MAQSADLAR, BACKWARD DESIGN VA BLOOM TAKSONOMIYASI ASOSIDA LOYIHALASH

Maqsad: O'quv jarayonini kompetensiyaviy yondashuv, SMART maqsadlar, Backward Design (Teskari loyihalash) va Bloom taksonomiyasi tamoyillari asosida modellashtirish orqali o'zga tilli sinflarda o'zbek tili darslari samaradorligini oshirish hamda pedagoglarning dars sifatini tizimli tahlil qilish va ekspert baholash bo'yicha kasbiy ko'nikmalarini rivojlantirish.

Vazifalar:

1. O'zbek tili fanini ikkinchi til sifatida o'qitishda an'anaviy grammatik yondashuvdan funksional-kommunikativ yondashuvga o'tishning nazariy asoslarini tahlil qilish.
2. SMART texnologiyasidan foydalangan holda, o'quvchilarning yosh va til darajasiga mos, aniq o'lchanadigan nutqiy natijalarni belgilash strategiyasini ishlab chiqish.
3. Backward Design modeli asosida darsni "maqsad — baholash — faoliyat" ketma-ketligida o'zbek tili darslariga moslashtirish.
4. Bloom taksonomiyasining turli darajalarini (eslashdan yaratishgacha) qo'llash orqali o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rag'batlantiruvchi topshiriqlar majmuasini shakllantirish.
5. Dars loyihalarini amaliy modellar asosida ishlab chiqish hamda o'quv mashg'ulotlarini sifatli tahlil qilish va baholash uchun diagnostik mezonlar tizimini yaratish.

Dolzarbligi

Bugungi kunda o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitish an'anaviy ta'limdagidek faqat lug'at va grammatik qoidalarni o'rgatish bilan chegaralanmay, balki egallangan bilimlarni hayotiy vaziyatlarda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishni taqozo etmoqda. Biroq ta'lim jarayonida ko'plab pedagoglar hali ham mavzuni faqatgina nazariy tushuntirib o'tish bilan chegaralanib qolmoqdalar.

O'tilayotgan mavzu doirasida o'quvchi qancha so'z boyligini o'zlashtirishi va ularni amaliyotda qo'llay olish darajasi oldindan rejalashtirilmaganligi sababli dars yakunida o'quvchining qanday ko'nikmalarni egallagani mavhumligicha qolmoqda.

Ushbu muammolarni tizimli bartaraf etish uchun darslarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish va zarur ko'nikmalar integratsiyasi asosida rivojlantirish zarur. Mazkur yondashuvni **SMART maqsadlar, Backward Design (Teskari loyihalash) va Bloom taksonomiyasi** bilan boyitish hamda ularning o'zaro aloqadorligini ta'minlash dars samaradorligini yangi sifat bosqichiga olib chiqadi. Bunday metodologik yondashuv o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganayotgan o'quvchilar uchun til birliklarini shunchaki yodlash emas, balki ularni muloqot jarayonida erkin va to'g'ri qo'llash imkoniyatini yaratib, o'quv jarayonini yanada qulay va natijador qiladi.

REJA

I. O'ZBEK TILI TA'LIMINI MODERNIZATSIYALASHTIRISH: YANGI QARASHLAR

1.1. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati: An'anaviy grammatik o'qitishdan funksional-kommunikativ paradigmaga o'tish.

1.2. Backward Design (Teskari loyihalash) konsepsiyasi: Darsni kutilayotgan natijadan kelib chiqib rejalashtirish.

II. DARS LOYIHALASHNING ZAMONAVIY TEXNOLOGIK VOSITALARI

2.1. SMART maqsadlar tizimi: O'quv maqsadlarini aniq, o'lchanadigan va erishiladigan natijalarga yo'naltirish mexanizmlari.

2.2. Bloom taksonomiyasi – kognitiv bilimlarni rivojlantirish vositasi.

III. AMALIY QISM: DARS LOYIHASINI YARATISH VA EKSPERT BAHOLASH

3.1. Backward Design modeli asosida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlarni yaratish.

3.2. Bloom taksonomiyasi darajalariga mos topshiriqlar tayyorlash.

3.3. Darsni tizimli tahlil qilish texnologiyasi va o'quvchilar natijalarini aniq o'lchash uchun ekspert baholash mezonlari.

1.1. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati: An'anaviy grammatik o'qitishdan funksional-kommunikativ paradigmaga o'tish zarurati.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'lim — bu o'quvchilarda egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo'llay olish nuqtai nazaridan beriladigan ta'limdir. Umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartida kompetensiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif berilgan: kompetensiya – mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyatidir. Bunday yondashuvning asosiy maqsadi o'quvchilarga tayyor bilim berish emas, balki ularning o'z fikrlarini erkin bayon etishga, turli vaziyatlarda qarorlar qabul qilishga, muammolarni hal qilishda ijodiy va tanqidiy fikrlashni o'rgatishdir. O'zbek tilini ikkinchi yoki xorijiy til (L2) sifatida o'qitishda zamonaviy o'quv dasturlariga ko'ra, 5 ta kompetensiya zarur.

Chunki bu kompetensiyalar birgalikda o'quvchida tilni hayotiy vaziyatlarda qo'llay olish ko'nikmasini shakllantiradi.

Kompetensiya turlari	Mohiyati	Amaliy ko'rinishi
Nutqiy (kommunikativ)	O'qish, tinglab tushunish, yozish va gapirish orqali fikr almashish	Matnni o'qib tushunish, audio matnlarni eshitib tahlil qilish, dialoglar tuzish, esse, xat, rasmiy hujjatlar yoza olish.

Lingvistik (til)	Grammatik, fonetik, leksik va orfografik bilimlarga ega bo'lish	Qo'shimchalarni to'g'ri qo'llash, so'zlarning ma'nolarini anglash, to'g'ri yozish va talaffuz qilish qoidalariga amal qilish
Pragmatik (vaziyatga moslashish)	Til birliklarini nutqiy vaziyat, maqsad va tinglovchiga qarab to'g'ri tanlay olish	Do'stlar bilan so'zlashganda norasmiy tildan, rasmiy idoralarda rasmiy idoraviy uslubdan foydalanish; yoshga doir vaziyatlarda: bolalar va kattalar uchun mos muloqot shakli.
Sotsiolingvistik (ijtimoiy-madaniy)	Tilning madaniy me'yorlari, milliy nutqiy qadriyatlar va etiketlarga amal qilgan holda muloqot qilish.	Kattalarga hurmat yuzasidan "Siz" lab murojaat qilish, o'zbekona turg'un birikmalar: taomlanish oldidan "Yoqimli ishtaha", mehmon kutganda: "Xush kelibsiz" kabi so'zlarni o'z o'rnida qo'llash.
Strategik (kompensator)	Muloqot jarayonida til yetishmovchiligi yoki tushunmaslik yuzaga kelganda muammodan chiqa olish qobiliyati.	Bilmaydigan o'zbekcha so'zi o'rniga sinonimini qo'llash, yoki so'z ma'nosini unga aloqador boshqa so'zlar bilan tushuntirish.

1.2. Backward Design (Teskari loyihalash) konsepsiyasi: Darsni kutilayotgan natijadan kelib chiqib rejalashtirish.

Backward Design konsepsiyasiga AQShlik pedagog-olimlar Grant Wiggins (Grant Wiggins) va Jey MakTayg (Jay McTighe) tomonidan asos solingan. Ular o'zlarining fundamental *"Understanding by Design"*

(Tushunish orqali loyihalash) asarida darsni an'anaviy tarzda emas, balki teskari tartibda rejalashtirishni taklif qilishgan.

Bunga muvofiq darsni rejalashtirishni "Bugun qaysi mavzuni o'taman va qanday mashq bajartiraman?" degan savol o'rniga "Dars oxirida o'quvchi hayotiy vaziyatda aynan nima qila oladi?" degan yakuniy natijadan boshlashdir. Har bir dars maqsadga asoslangan bo'ladi. An'anaviy loyihalash va teskari loyihalashning 3 bosqichini "Kasblar" mavzusida jadval asosida ko'rib chiqamiz.

Teskari Dizayn



Mezon	An'anaviy dars loyihasi (mavzuga yo'naltirilgan)	Bacward Design dars loyihasi (natijaga yo'naltirilgan)
1-Bosqich: Istalgan yakuniy natijani aniqlash	O'quvchilarga kasb nomlarini o'rgatish, lug'at boyligini oshirish va ularni o'z ona tiliga tarjima qila olishiga erishish.	Dars yakunida o'quvchi kelajakda tanlamoqchi bo'lgan kasbini va unga xos kamida 2 ta asosiy vazifani og'zaki ta'riflab bera oladi.
2-Bosqich: Natijaga erishilganini ko'rsatuvchi dalillar	-Yangi so'zlarni yozadi va yodlaydi -Matnni o'qiydi -Kasblarga oid grammatik mashqlarni (masalan, kim? nima? so'roqlariga javob bo'luvchi so'zlarni topish) bajaradi.	Muloqotda ishlatiladigan qoliplarni o'rganadi. ("Men kelajakda... bo'lmoqchiman. Chunki men...") Kasbga aloqador otlarni moslashtira oladi.
3-Bosqich: Dars jarayoni va o'quv faoliyatini rejalashtirish	O'qituvchi o'quvchidan kasb nomlarini tarjimasini so'raydi, yoki lug'at diktant oladi.	Taqdimotlar yoki o'yin orqali kasblar haqida suhbatlashiladi. Masalan: "Men kimman" o'yini orqali sinfdagi barcha o'quvchilar darsga jalb qilinadi.

Kutilayotgan natija. An'anaviy usulda o'quvchi 20 ta kasb nomini o'zbekcha va ruscha tarjimasini bilan yodlab berishi mumkin (masalan: *oshpaz, shifokor, duradgor*). Ammo hayotiy vaziyatda "*Siz kim bo'lib ishlaysiz?*" yoki "*Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?*" degan savolga javob bera olmaydi. Chunki u so'zlarni faqat tarjimasini yodlagan, lekin ulardan gap tuzishni o'rganmagan. Backward Design usulida esa o'quvchi dars oxirida muloqot qila olishi uchun dars boshidayoq unga nutqiy andoza (andaza ichida grammatika tabiiy ravishda singdirilgan bo'ladi) beriladi: "*Men (kasb nomi)man. Men(doska, qaychi,pichoq)dan foydalanaman.*" Bu yerda grammatika (kim? nima so'roqlariga javob bo'luvchi so'z) alohida qoida sifatida yodlatilmaydi, balki gap tuzish jarayonida o'z-o'zidan o'zlashtiriladi.

2.1. SMART maqsadlar tizimi: O'quv maqsadlarini aniq, o'lchanadigan va erishiladigan natijalarga yo'naltirish mexanizmlari.

7- sinf "O'zbek tili" darsligining "Tabiat hodisalari (tabiat hodisalariga mos fe'llarni qo'llash)" mavzusi asosida.



Kategoriya	Ta'rifi	O'zbek tili darsiga misol
S — Specific (<i>Aniq</i>)	Dars maqsadi aniq va o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak	Tabiat hodisalari nomlarini bilishi va ularga oid fe'llarni to'g'ri qo'llab gaplar tuza oladi
M — Measurable (<i>O'lchanadigan</i>)	Natijani o'lchash imkoniyati bo'lishi lozim.	Berilgan so'zlarni fe'llar bilan moslashtira oladi.
A — Achievable (<i>Erishish mumkin bo'lgan</i>)	O'quvchining yoshi va joriy til darajasiga (7-sinf A2 daraja) mos bo'lishi kerak.	O'quvchi ob-havo haqida kamida 5 ta gap tuza oladi va gapiradi.
R — Relevant (<i>Mavzuga mos/hayotiylik</i>)	Hayotiy, kundalik muloqot ehtiyojlar va DTS talablariga mos kelishi kerak.	Ob-havoni aks ettiruvchi belgili rasmlar orqali og'zaki dialog va yozma shaklda imlo qoidalari asosida yoza oladi.
T — Time-bound (<i>Vaqt bilan chegaralangan</i>)	Maqsadga erishish vaqti belgilangan bo'lishi kerak	Darsning amaliy qismi yakuniga qadar (25 daqiqada).

Demak, SMART loyihalash darsi yakunida o'quvchilar ekran oldiga chiqib, xaritaga qarab tabiat hodisalariga xos kamida 10ta fe'lni zamonlarda to'g'ri qo'llagan holda o'zbek tilida 3-4 ta gap orqali og'zaki ta'riflab bera oladilar. O'qituvchi o'quvchining gaplar soni va fe'l zamonlarini to'g'ri qo'llaganiga qarab maqsadga erishilganini aniqlay oladi.

2.2. Bloom taksonomiyasi - kognitiv bilimlarni rivojlantirish vositasi.

Bloom taksonomiyasi o'quvchida eslab qolishdan boshlab tanqidiy va ijodiy fiklashga o'tish ko'nikmalarini rivojlantirish vositasidir. Bunda o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini aniq mezonlar asosida tekshirish uchun sifatli nazorat materiallari yaratiladi.



Daraja	Tavsif	O'zbek tili darsida faollashtiruvchi fe'llar
--------	--------	--

1. Bilish (Remembering)	O'rganilgan materialni, faktlarni, atamalarni xotirada saqlash va qayta eslash.	Atash, sanab o'tish, ta'riflash, topish, takrorlash.
2. Tushunish (Understanding)	O'rganilgan ma'lumotning mohiyatini anglash, o'z so'zi bilan tushuntirish.	Izohlash, tasvirlash, misol keltirish, almashtirish, qayta ishlash, guruhlash, farqini topish, aniqlash.
3. Qo'llash (Applying)	Bilimlarni yangi amaliy vaziyatlarda ishlatish.	Foydalanish, tahrirlash, gap tuzish.
4. Tahlil (Analyzing)	Butunni qismlarga ajratish(matnni qismlarga bo'lish), ular o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini va tarkibini aniqlash.	Ajratish, sababini ko'rsatish, solishtirish, farqlash.
5. Baholash (Evaluating)	Fikr yoki qarorlarni asoslash, hukm chiqarish.	Baho berish, tanqid qilish, tasdiqlash, asoslash.
6. Yaratish (Creating)	Qismlarni o'zaro birlashtirib, mutlaqo yangi yaxlitlik, tuzilma yoki mahsulot yaratish.	Loyihalashtirish, yozish, rejalashtirish, yaratish, ishlab chiqish.

3.1. Backward Design modeli asosida o'quvchilarning nutqiy ko'nikmalarini rivojlantiruvchi topshiriqlarni yaratish.

Sinf: 6- sinf

Mavzu: *Zamonaviy Toshkent (sifatlarning qo'llanishi)*

1-Bosqich: Istalgan natijalarni aniqlash (SMART Maqsad)

Dars yakunida o'quvchilar:Toshkent shahrining zamonaviy qiyofasini tasvirlashda sifatning ma'no turlaridan foydalanib dialog tarzida suhbatlasha oladi va yozma shaklda 5-6 ta gapdan iborat shaharning tashrif qog'ozini yaratadi.

2-Bosqich: Dalillarni aniqlash (Baholash mezonlari)

O'quvchi maqsadga erishganini qanday bilamiz?

1.*Kriteriy A:* Zamonaviy Toshkent haqidagi matn qismlarini birlashtirib yaxlit matn holiga keltiradi. Matnni o'rganib chiqadi.

2. *Kriteriy B:* Toshkentdagi binolar va ularning xususiyatlari (sifatlar)ni moslashtirish.

3. *Kriteriy C:* Dialoglar qurish orqali so'zlarni tog'ri qo'llash va gap tuza olish. (Rasmlar asosida. "Men gidman" rolli o'yini ham tashkil qilish mumkin.)

3-Bosqich: Dars jarayoni va o'quv faoliyati (Learning Plan)

1. **Chaqiriq (Miyaga hujum):** O'quvchilarga Toshkentning avvalgi va hozirgi holati aks etgan rasmlar va jadval taqdim etiladi. Rasm asosida jadvalga sifatlarning ma'no turlarini belgilanadi.
2. **Yangi mavzu taqdimoti:** nutqiy mavzu taqdimot asosida, grammatik mavzu esa sxema va jadvallar asosida tushuntiriladi.
3. **Guruhlarda ishlash:** o'quvchilar guruhlarga bo'linib, o'zlariga yoqqan zamonaviy binoning tashrif qog'ozini dizayn asosida yaratadilar.

3.2. Bloom taksonomiyasi darajalariga mos topshiriqlar tayyorlash.

6- sinf. Mavzu: "Hunarmand podsho" ertagi. (Audiomatn shaklida eshittiriladi)

O'qituvchi bitta dars doirasida yoki tizimli darslar ketma-ketligida quyidagi darajali topshiriqlarni o'quvchilarga taqdim etadi:

[Bilish] --> "To'g'ri- noto'g'ri" jadvali orqali aniqlanadi.

[Tushunish] --> ertakdagi voqealarni ketma-ketligini aniqlanadi.

Leksik bilimlarni tushunganligini aniqlash uchun: matndagi ayrim leksik birliklarning ma'nosini moslashtiriladi.

[Qo'llash] --> Hunarmandchilikka oid leksik birliklardan foydalanib gaplar tuziladi.

[Tahlil] --> hunarli podsho va hunarsiz podsho ana shunday mushkul vaziyatga tushsa qanday sabab-oqibatlar yuzaga kelishini tahlil qilinadi.

[Baholash] --> Ertakdan kelib chiqqan holda, qiz va podshoga baho bering. Baxtga erishish uchun siz nimalar qilishingiz kerakligi haqida xulosalaringizni ayting.

[Yaratish] --> rasm asosida ertak voqealarini davom ettiriladi.

Topshiriqlardan namunalar

Bilish

1. TO'G'RI-NOTO'G'RI				
No	Ma'lumotlar	to'g'ri	noto'g'ri	berilmagan
1	 Qiz podshoga gilam to'qishni o'rganishi kerakligini aytadi.	☐	☐	☐
2	 Podshoh hunar o'rganish uchun taxtini vaziriga topshirib ketadi.	☐	☐	☐
3	 Qiz tikuvchi edi.	☐	☐	☐
4	 Mamlakatda savdogar va boylar yo'qolib qola boshlaydi.	☐	☐	☐
5	 Podshoh o'g'rilarga gilam to'qib beradi	☐	☐	☐
6	 Vazir olib kelingan gilamni podsho to'qiganini bilib qoladi.	☐	☐	☐
7	 Podshoh o'g'rilarni kimsasiz orolga surgun qilladi.	☐	☐	☐

Tushunish. Voqealar ketma-ketligiga doir.



Tushunish 2.

Asir	100 taqvim yili
Asr	Dushmanga bandi bo'lish
Podsho	gilam to'qish bilan shug'ullanuvchi hunarmandchilik sohasi
\/= Prezident	otadan o'g'ilga meros bo'lib qoladigan mamlakat hukmdori

Gilamdo'zlik	respublika shaklida boshqariladigan davlatlarda saylab qo'yiladigan mamlakat boshlig'i
--------------	--

Tahlil. T sxemasi orqali tahlil qiling.

Hunarli podsho	Hunarsiz podsho

3.3. Darsni tizimli tahlil qilish texnologiyasi va o'quvchilar natijalarini aniq o'lchash uchun ekspert baholash mezonlari.

Baholash mezonlari	Past (1-2 ball)	O'rta (3-4 ball)	Yuqori (5 ball)
SMART Maqsadning qo'yilishi	Maqsad umumiy belgilangan, uni o'lchash imkonsiz.	Maqsad aniq, biroq dars vaqti (Time-bound) va resurslarga mosligi to'liq emas.	Maqsad SMART talablariga to'liq javob beradi, o'quvchiga dars boshida e'lon qilinadi.
Backward Design izchilligi	Dars faoliyatlari umumiy mavzuga mos, lekin kutilayotgan yakuniy natijaga yo'naltirilmagan.	Baholash vositalari bor, lekin ular dars maqsadiga qisman mos keladi.	Dars maqsadi, baholash vositalari va o'quv topshiriqlari o'zaro mukammal muvofiqlikda (alignment).
Bloom taksonomiyasi	Faqat quyi (bilish va tushunish) darajadagi topshiriqlardan foydalanildi.	O'rta darajadagi topshiriqlar bor, ammo yuqori kognitiv darajalarga o'tish tizimli emas.	O'quvchilar topshiriqlar orqali tahlil, baholash va ijodiy yaratish darajalariga tizimli olib chiqildi.
Kompetensiyaviy natija	O'quvchilar faqat lug'at so'zlarni yodladi va mashq daftarda ishladi.	Leksik birliklarni gap ichida qo'lladi, ammo hayotiy yoki ijodiy matn	O'quvchilar olingan nutqiy va lingvistik bilimlar asosida shaxsiy funksional

		yozish darajasiga yetmadi.	nutqiy mahsulot (matn, dialog) yaratdi.

XULOSA

Yuqoridagi modellarni integratsiya qilgan holda qo'llash o'zbek tili metodikasi sifatini tubdan o'zgartiradi.

Kompetensiyaviy yondashuv ta'lim tizimining barcha bosqichlarida o'quvchilarning nafaqat bilim, balki ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan eng samarali metodlardan biridir. U nafaqat ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi, balki o'quvchilarning ijtimoiy va professional hayotga tayyorlanishlarini ta'minlaydi.

Backward Design o'quvchi erishishi mumkin bo'lgan aniq maqsadlarga yo'naltiradi.

SMART maqsadlar esa ana shu maqsadlarga erishish bosqichlarida erishuvchanlik, hayotiylik, moslik va qancha muddatda amalga oshishi mumkinligini belgilab beradi. Bu orqali darsning tizimliliigi, baholashning shaffofligi ta'minlanadi.

Bloom taksonomiyasi har bir o'quvchining bilimini oddiydan murakkabga tomon o'sishiga yordam beradi. Dars eslash, yodda saqlashdan boshlanib, yaratish bilan yakunlanadi. Bunday darslarning yana bir afzal jihati shundaki, o'quvchi qaysi bosqichda oqsayotganligi darajalangan topshiriqlarni bajarish jarayonida yuzaga chiqadi va ana shu o'zlashtirilmagan ko'nikma ustida ishlash imkoniyatini beradi.

Demak, mana shu uchlikni kompetensiyaviy yondashuv bilan birgalikda qo'llash darslarni zerikarli mashg'ulotdan qiziqarli, kreativ jarayonga aylantiradi. Natijada har bir dars san'at asari darajasiga ko'tariladi. Shuning uchun metodist va pedagoglar faoliyatini aynan ushbu zamonaviy metodologik mezonlar asosida tahlil qilishlari va yo'naltirishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'. Tolipov, D. Ro'ziyeva "Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat"- Toshkent "Innovatsiya-Ziyo" 2019.
2. I. Azimova "Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi"- "Hilol-nashr" 2020.
3. O. Hojiyev "Kompetensiyaviy yondashuvning asosiy tamoyillari va metodlari"- "Devlopment of science" 2025.
4. Davlat ta'lim standarti
5. D. Xidayatova, N. Rasulov, N.Yuldasheva, N. Usmonova, Y. Xasanova "O'zbek tili" 6-sinf -Toshkent-2022
6. Internet manbalari